

## KOREYS VA O'ZBEK TILLARI FONETIKASI: O'XHASH VA FARQLI JIHATLARI

Xayrullayeva Farangiz Lutfulla qizi

Andijon Davlat Chet Tillari instituti

Xomidova Malohat Oktyabrjon

qizi

**Annotatsiya:** Til insonning asosiy muloqot vositasi bo'lib, u nafaqat aloqa qilish, balki madaniyat, tarix va milliy o'zlikni anglashda ham muhim o'rinn tutadi. O'zbek va koreys tillari turli til oilalariga mansub bo'lsa ham, ularning fonetikasi o'rtasida o'xhashliklar va farqlar bor. Ushbu maqolada o'zbek va koreys tillari fonetik tizimining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

**Annotation:** Language is the primary means of human communication, serving not only as a tool for interaction but also playing a crucial role in understanding culture, history, and national identity. Although Uzbek and Korean belong to different language families, they share certain phonetic similarities and differences. This article analyzes the distinctive features of the phonetic systems of Uzbek and Korean languages.

**한국어:** 언어는 인간의 주요 의사소통 수단으로서 단순한 소통 도구일 뿐만 아니라 문화, 역사, 그리고 민족 정체성을 이해하는 데에도 중요한 역할을 합니다. 우즈베크어와 한국어는 서로 다른 어족에 속하지만, 그들의 음운 체계에는 유사점과 차이점이 존재합니다. 본 논문에서는 우즈베크어와 한국어의 음운 체계의 특징을 분석합니다.

**Kalit so‘zlar:** Fonetik tizim, unli tovushlar, undosh tovushlar, bo‘g‘in tuzulishi, urg‘u va intonatsiya, orfoepiya, tovush o‘zgarishi va farqlar

**Keywords:** Phonetic system, vowel sounds, consonant sounds, syllable structure, stress and intonation, orthoepy, sound changes, difference

**한국어:** 음운 체계 (음성 체계) 모음 소리 자음 소리 음절 구조 음절 구조

강세와 억양 정음법 음운 변동 차이점

Tilshunoslik nuqtai nazaridan, o‘zbek va koreys tillari turli til oilalariga mansub: o‘zbek tili – turkiy tillar oilasiga, koreys tili esa izolyatsiyalangan tillarga kiradi ya’ni bu genealogik jihatdan boshqa hech bir til oilasiga mansub bo‘lmagan, mustaqil rivojlangan tildir. Lekin bu tillarning fonetik tizimida o‘xshashliklar va farqlari tomonlar uchrab turadi.

**Unli tovushlarning tizimli shakllanishi:** Har ikkala tilning nutq tizimida unli tovushlar muhim o‘ringa ega. O‘zbek tilida 6 ta unli (a, o, e, i, u, o‘) bo‘lsa, koreys tilida 10 ta asosiy unli (ㅏ,ㅓ,ㅗ,ㅜ,ㅡ,ㅣ,ㅐ,ㅔ,ㅚ,ㅟ) mavjud. Ikki tilning ham unli tovushlari cho‘ziq va qisqa jihatlariga asoslangan muayyan farqlarga ega.

**Unli tovushlarning uyg‘unlashuvi:** Tilimizda unlilar uyg‘unligi saqlansada ma’lum bir so‘zlar talaffuzida seziladi. Dastlabki koreys tili unlilar uyg‘unligiga nazar solsak bu - muhim jihatlardan biri bo‘lgan, ammo zamonaviy koreys tilida bu jihat biroz o‘z kuchini yo‘qotgan.

**Undosh tovushlarning mavjudligi va sonoriya:** Koreys va o‘zbek tillarining har ikkalasida ham undosh tovushlar soni unli tovushlarga nisbatan ko‘p. Sonor tovushlarning barchasi(l, r, m, n, ng) har ikkala til fonetik tizimida uchraydi. O‘zbek va koreys tillarida ba’zi undoshlar so‘z boshida va oxirida turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Masalan, koreys tilidagi “ㄹ” (r/l) tovushi so‘z boshida “r”, so‘z oxirida esa “l” sifatida jaranglaydi. Bu o‘zbek tilidagi ba’zi urg‘uli talaffuzlarga yaqin.

**So‘z ohangi va urg‘u tizimi:** Urg‘u tizimi o‘zbek va koreys tillarida nisbatan erkin bo‘lib leksik ma’noni o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi.

**Assimilatsiya va talaffuzdagi o‘zgarishlar:** O‘zbek va koreys tillarida tovushlarning bir-biriga ta’sir qilib o‘zgarishi holatlari ko‘p kuzatiladi. Masalan, o‘zbek tilida “yutdi” so‘zida /t/ va /d/ tovushlari birlashib, yumshoq talaffuz qilinadi. Koreys tilida ham undosh tovushlarning o‘zaro ta’siri tufayli talaffuz o‘zgaradi, masalan, 받침 – patchim qoidalari.

O‘zbek va koreys tillari fonetikasi turli jihatlari bilan keskin farqlanadi.

### **Unlilar tizimidagi farqlar:**

O‘zbek tilida 6 ta unli tovush mavjud: a, o, e, i, u, o‘.

Koreys tilida esa 10 ta asosiy unli ئ, ئ, ئ, ئ, ئ, ئ, ئ, ئ, ئ, ئ va qo‘sishma diftonglar bor.

Misol: O‘zbek tilida "anor" so‘zidagi "a" va "o‘lka" so‘zidagi "o" "unlilar aniq talaffuz qilinadi. Koreys tilida ئ (o‘) va ئ (o) o‘zbek tilidagi "o" ga nisbatan farqliroq talaffuz qilinadi.

**Urg‘u tizimidagi farqlar:** O‘zbek tilida urg‘u nisbatan erkin bo‘lib ma’no o‘zgartirishga ta’sir qiladi. Koreys tilidagi urg‘u esa unli tovushlarning uzunligi va intonatsiyasiga ta’sir qiladi. O‘zbek tilida: “bora” va “bora” so‘zlarining urg‘usi o‘zgarishi bilan ma’no o‘zgarmaydi. Koreys tilida: ئ (nun) – "ko‘z" va ئ (nun) "qor" so‘zleri urg‘u va intonatsiya tufayli farqlanadi.

**Undosh tovushlarning farqlari:** O‘zbek tilida undosh tovushlar jarangsiz va jarangli tarzda ikkiga bo‘linadi. Koreys tilida uch turdag'i undoshlar mavjud:

1. Oddiy (ئ, ئ, ئ, ئ, ئ) – [k], [t], [p], [ch], [s]

2. Aspiratsiyalangan (**↗, ↙, ↛, ↚**) – [k<sup>h</sup>], [t<sup>h</sup>], [p<sup>h</sup>], [ch<sup>h</sup>]

3. Tensifikatsiyalangan (**↖, ↖, ↘, ↙**) – kuchaytirilgan [kk], [tt], [pp], [jj], [ss].

O‘zbek tilida “she’r” va “sher” talaffuzi farqlanmaydi.

Koreys tilida **발** (bal) – "oyoq" va **팔** (phal) – "qo‘l" so‘zlari (p) tovushining aspiratsiyalangan yoki oddiy talaffuzi bilan farqlanadi.

So‘z boshidagi “L” va “R” tovushlari: O‘zbek tilida so‘z boshida L va R bemalol qo‘llaniladi. Koreys tilida esa so‘z boshida "**ㄹ**" (L/R) odatda ishlatilmaydi yoki boshqa tovushga aylanishi mumkin.

Misol: O‘zbek tilida: “lola”, “radio” so‘zlarida talaffuzida muammo yo‘q.

Koreys tilida: “radio” so‘zi **라디오** (radio) deb yoziladi, chunki so‘z boshidagi “R” oddiy talaffuz qilinmaydi balki "lr" shaklida yumshoq talaffuz qilinadi.

### Assimilatsiya farqlari:

O‘zbek tilida tovushlarning o‘zgarishi darajada minimal holda kuzatiladi.

Koreys tilida esa tovushlarning bir-biriga ta’sir qilib o‘zgarishi juda ko‘p uchraydigan fonetik holatlardan biri.

Misol: O‘zbek tilida: "yutdi" – /t/ va /d/ yumshoq talaffuz qilinadi.

Koreys tilida: **학교** (hakgyo) – "maktab" lekin talaffuzda [hak-kyo] bo‘lib, undoshlar bir-biriga ta’sir qiladi.

**Tovush o‘zgarishlari va talaffuz farqlari:** O‘zbek tilida talaffuz va so‘z yozilishi deyarli mos tushadi. Koreys tilida ba’zi so‘zlar yozilishidan farqli talaffuz qilinadi.

Misol: O‘zbek tilida: “qor” so‘zi qanday yozilsa, shunday talaffuz qilinadi.

Koreys tilida: 좋아요 (johayo) – "yaxshi" lekin talaffuzi [choayo] bo‘lib o‘zgaradi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Rasulov, A. A. (2005). O‘zbek tilining fonetikasi va fonologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Lee, I. & Ramsey, S. R. (2000). The Korean Language. State University of New York Press.
3. Jonghoon, K. (2011). Korean Phonetics and Phonology: A Descriptive Analysis. Seoul: Hankuk University Press.
4. Sodiqova, D. (2018). O‘zbek va koreys tillarining fonetik tadqiqi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.